



OLIY TA'LIM TIZIMIDA "FUQAROLIK JAMIYATI" FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Sultonova Gulmira Mahmudovna

"Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi"

kafedrasi o'qituvchisi, NavDPI

Аннотация: Сегодня в Узбекистане для построения действительно демократического государства, основанного на верховенстве закона и развитии гражданского общества, большое внимание уделяется совершенствованию правовой системы, повышению правосознания и правовой культуры в обществе. С этой точки зрения, одной из актуальных задач является обучение субъекта гражданского общества в системе высшего образования путем повышения правовой культуры в обществе.

Ключевые слова: Высшая образования, демократическая государства, правовая культура, общество, обучения, закон.

Annotation: Today in Uzbekistan, in order to ensure the rule of law and the development of a truly democratic state and civil society, great attention is paid to improving the legal system and raising legal awareness and legal culture in society. From this point of view, one of the urgent tasks in raising the legal culture in society is the teaching of civil society in the higher education system. The article discusses the advantages and opportunities of using innovative educational technologies in the teaching of science in the educational process.

Key words: High education, democratic state, legal culture, society, learning, law.



Bugungi kunda O'zbekistonda tom ma'noda huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida qonunchilik tizimini takomillashtirish, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2019-yil 9-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"¹gi farmoni va u asosida "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi" qabul qilindi. Ushbu farmon va konsepsiyaning asosiy maqsadlaridan biri sifatida jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish orqali jamiyat hayotini yuksaltirish belgilangan. Shu nuqtai nazardan jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda fuqarolik jamiyati fanini oliy ta'lim tizimida o'qitish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mustaqil taraqqiyot yo'li davomida mamlakatimizda yangi fanlar shakllanishi va rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 sentyabrdagi 07/1-616-sonli topshirig'i va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2015 yil 18-sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida "Fuqarolik jamiyati" fanini o'qitilishini joriy etish to'g'risida" gi 352-sonli buyrug'iga asosan barcha ta'lim yo'nalishlarida "Fuqarolik jamiyati" fanini o'qitish belgilangan.²

Shu munosabat bilan oliy ta'lim bakalavriat yo'nalishidagi talabalarni sifatli va zamon talablariga mos tarzda o'qitish, munosib kadrlar tayyorlash bugungi kun oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Mamlakatimizning har tomonlama taraqqiy etishi ham ko'p jihatdan kadrlar tayyorlash masalasiga bog'liq. Shu boisdan, respublikamizda ta'lim sohasiga alohida strategik masala sifatida qaralmoqda. Buning uchun zarur mablag' va mehnat sarflanmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni. 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-son. / www.lex.uz

² Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 sentyabrdagi 07/1-616-sonli topshirig'i va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2015 yil 18-sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida "Fuqarolik jamiyati" fanini o'qitilishini joriy etish to'g'risida" gi 352-sonli buyrug'i



Har bir mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashda ta'limiy islohotlarni samarali va izchil olib borish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"³gi farmoni ijrosi yuzasidan mamlakatimizda 2017 yilda siyosiy-huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalar bilan bir qatorda ijtimoiy sohada ham chuqur sifat o'zgarishlari ro'y berdi.

Prezidentimiz Oliy Majlisga Murojaatnomasida ijtimoiy sohani isloh qilish masalalariga alohida e'tibor qaratib: "Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish borasida ham ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2017-2021 yillarda oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi qabul qilindi", deb ta'kidlagandi.

O'zbekiston Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁴ gi qaroriga ko'ra, quyidagilar oliy ta'lim tizimini kelgusida kompleks rivojlantirishning eng muhim vazifalari etib belgilandi:

-har bir oliy ta'lim muassasasi tomonidan xorijdagi yetakchi turdosh ilmiy-ta'lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalarini yaqindan yo'lga qo'yish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim dasturlari va o'quv metodik materiallarni keng joriy etish, ilmiy-pedagogik faoliyatga yuqori malakali chet el o'qituvchilari va olimlarini jalb etish;

-oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashning maqsadli mezonlarini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalaridagi ixtisoslik yo'nalishlari va mutaxassislarni hududlar va sohalar bo'yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlari, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni kompleks taraqqiy ettirish istiqbollari inobatga olgan holda optimallashtirish;

Harakatlar strategiyasida ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni //Xalq so'zi, 2017, 8 fevral.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. 2017 yil 20 aprel. /www.lex.uz



o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etishga ta'lim va fan sohasini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida alohida e'tibor qaratilgan.

Kadrlar tayyorlash ta'lim va tarbiyaning mazmuniga bog'liq. Bugungi texnologik jamiyatda zamonaviy ilg'or texnologiya tez joriy etilishi raqobatbardosh tovarlar va xizmatlar yaratishga xizmat qiladi. Ta'lim sohasida ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish bu sohadagi ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni barcha ta'lim yo'nalishlarida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida ham zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarni qo'llash ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Xususan, oliy o'quv yurtlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarni qo'llash bo'lajak mutaxassislarni ob'ektiv ilmiy dunyoqarashini shakllanishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni talabalarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, talabalar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Interfaol mashg'ulotlarni amalda qo'llash bo'yicha ayrim tajribalarni o'rganish asosida bu mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy-metodik hamda o'qituvchiga, o'quvchilarga, ta'lim vositalariga bog'liq omillar deb atash mumkin. Ular o'z mohiyatiga ko'ra ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishini nazarda tutishimiz lozim.



Huquqiy fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalari, multimedia jihozlaridan foydalanib, mavzu bo'yicha ishlab chiqilgan Power Point formatidagi jadvallardan, kompyuterdan, audio va video jihozlardan, videoprojektorlardan foydalaniladi. Shuningdek, ma'ruza va seminar mashg'uloti davomida mavzuning tayanch tushunchalari hamda tamoyillarini tavsiflovchi tarqatma materiallar, tahliliy jadvallar, slaydlar hamda ko'rgazmali qurollar qo'llaniladi.

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalardan va mul'timedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qiluvchi ko'plab metodlar mavjud. Ular quyidagilar: "Klaster", "Debat", "Keys-stadi", "Aqliy hujum", "Suhbat", "Pinbord", "Muammoli vaziyat", "Baliq skeleti", "T-sxema", SWOT-tahlil, "Venn diagrammasi", "Ikki qismli kundalik", "Ruchka stol o'rtasida", "Rotatsiya", "Qor bo'ron", "Asalarigalasi", "Insert", "Nima uchun", "B-B-B", "Zinama-zina" kabilar darsning turidan qat'iy nazar dars sifatini va samaradorligini oshirishga katta xizmat qiladi.

Huquq sohalariga oid fanlar bo'yicha o'tkaziladigan amaliy mashg'ulot turlaridan biri bu – seminar mashg'ulotidir. Semirar mashg'ulotlarida ma'ruzada bayon qilingan nazariy bilimlarni mustahkamlash, fan bo'yicha olingan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va bilish qobiliyatlarini o'stirish, nazariy o'qitish jarayonida egallagan bilimlarning amaliyotga tadbiiq etilishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Seminar mashg'ulotlari davomida o'qituvchi va talaba o'rtasida ikki tomonlama yaqin aloqa o'rnatiladi, jonli suhbat olib boriladi, o'zaro fikr almashish va turlicha qarashlarni ifoda etish jarayonida fanning xususiiy masalalarini chuqur o'rganish maqsadini amalga oshiradi.



Bunda zamonaviy pedagogik texnologiyaning interfaol usullari qo'l keladi. Bu usullar yordamida seminar mashg'ulotlaridan asosiy maqsad-talabalarning faol ishlashi va mustaqil fikrlashi, o'z-o'zini baholash va boshqalarning fikrlarini hurmat qilish, mustaqil ishlash hamda guruhda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Demak, oliy o'quv yurtlarida Huquq sohalariga oid fanlarni o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish darsning maqsadiga erishish uchun xizmat qiladi. Fan mavzulari dolzarb va munozarali bo'lganligi uchun ushbu texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari ko'p bo'lib, talabalarni tahliliy va tanqidiy fikrlashga undaydi. Tahliliy fikrlash esa bilim olishning asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent: "O'zbekiston", 2017.-48 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. 2017-yil 20-aprel. /www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni. 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-son. / www.lex.uz
4. Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 10-sentyabrdagi 07/1-616-sonli topshirig'i va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2015 yil 18-sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida "Fuqarolik jamiyati" fanini o'qitilishini joriy etish to'g'risida" gi 352-sonli buyrug'i
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni //Xalq so'zi, 2017, 8 fevral.
6. Materials of the International Scientific and Practical conferences on the topic of Women's Achievements in Science, Education, Culture and Innovative Technologies